


2024-yilning yanvar-iyun oylarida Samarqand viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiyligi hajmi 18 292,4 mlrd. so‘mni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 104,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 17 725,2 mlrd. so‘m (104,2 %), o‘rmon xo‘jaligi 510,3 mlrd. so‘m (103,0 %), baliqchilik xo‘jaligi 56,9 mlrd. so‘m (110,7 %)ni tashkil qildi.

Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Samarqand viloyatining ulushi 10,8 % ni tashkil etdi.



01



17 725,2

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02



510,3

O‘rmon xo‘jaligi

03




56,9

Baliqchilik xo‘jaligi

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati, % da




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiylaj hajmining taqsimlanishi, % da



- O'rmon xo'jaligi
- Baliqchilik xo'jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo'jaligi sohasidagi xizmatlar

2024-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining 96,9 foizi dehqonchilik va chорvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 2,8 foizi o‘rmon xo‘jaligi, 0,3 foizi baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2024-yilning yanvar-iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Urgut (1 892,2 mlrd. so‘m) va Pastrdarg‘om (1 859,6 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Kattaqo‘rg‘on (92,8 mlrd. so‘m) va Samarqand (117,0 mlrd. so‘m) shaharlarini keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan yuqori o‘sish sur’atlari Samarqand shahrida (117,0 %), Samarqand (107,6 %), Urgut (105,3 %) hamda Ishtixon (105,2 %) tumanlarida kuzatildi.


Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’atlari, % da




Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2024-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 17 611,8 mlrd. so‘mni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 104,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 5 687,5 mlrd. so‘m (106,3 %)ni, chorvachilik mahsulotlari 11 924,3 mlrd. so‘m (103,1 %)ni tashkil qildi.


Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, % da



**Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, % da**




**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi**



Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiyligi hajmining 75,6 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 22,5 foizi fermer xo‘jaliklari, 1,9 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

**Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar
bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, % da**



2024-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko‘ra yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Toyloq tumanida (40,7 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Kattaqo‘rg‘on shahrida (99,9 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Samarqand tumanida (5,8 %) qayd etildi.


Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Samarqand (0,3 %) va Kattaqo‘rg‘on shaharlarida (0,0 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Samarqand tumanida (56,0 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Kattaqo‘rg‘on shahrida (0,1 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2024-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 5 687,5 mlrd. soʻmni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 106,3 foizni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 32,3 foizni tashkil qildi.

Don jami


Hajmi, ming tn.



Oʼsish surʼati



Yetishtirilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi



● Fermer xoʻjaliklari

● Dehqon va tomorqa xoʻjaliklari

● Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 491,7 ming tonna don (2023-yilning mos davriga nisbatan 9,2 foizga koʻp) yetishtirilgan.

Don yetishtirish koʻrsatkichlarini xoʻjaliklar toifalari boʻyicha tahlil qilinganda don yetishtirishning umumiy hajmidan 85,4 foizi fermer xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri kelishini koʻrsatmoqda.



**Samarqand viloyati hududlari
bo'yicha donli ekinlar yetishtirish
hajmi, tonna**




Sabzavotlar


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi
tashkilotlar




2024-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 322,4 ming tonna sabzavotlar (2023-yilning mos davriga nisbatan 6,5 foizga ko'p) yetishtirildi.

Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiylajmining 76,7 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati bo'yicha
sabzavotlar yetishtirish
hajmi, tonna**




Kartoshka


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati




Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 317,3 ming tonna kartoshka (2023-yilning mos davriga nisbatan 2,8 foizga ko'p) yetishtirildi.

Kartoshka yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda, kartoshka yetishtirish umumiyligi hajmining 84,3 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati hududlari
bo'yicha kartoshka yetishtirish
hajmi, tonna**




Poliz


Hajmi, ming tn.



O‘sish sur’ati



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**



Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari



Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 15,2 ming tonna poliz ekinlari (2023-yilning mos davriga nisbatan 2,5 foizga ko‘p) yetishtirildi.

Poliz ekinlari yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilganimizda, poliz ekinlari yetishtirish umumiy hajmining 73,0 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.




**Samarqand viloyati hududlari
bo'yicha poliz ekinlari yetishtirish
hajmi, tonna**




Meva va rezavorlar


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 91,4 ming tonna meva (2023-yilning mos davriga nisbatan 3,9 foizga ko'p) yetishtirildi.

Meva yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva yetishtirish umumiyligi hajmining 77,8 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati hududlari
bo'yicha meva va rezavorlar
yetishtirish hajmi, tonna**




Uzum


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



● Fermer xo'jaliklari


● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 4 623 tonna uzum (2023-yilning mos davriga nisbatan 5,6 foizga kam) yetishtirildi.

Uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda, uzum yetishtirish umumiylajmining 87,5 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



**Samarqand viloyati hududlari
bo‘yicha **uzum** yetishtirish
hajmi, tonna**




Chorvachilik



2024-yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 11 924,3 mlrd. so‘mni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,1 foizni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 67,7 foizni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining yetishtirish imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2024-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 150,6 ming tonna go’sht (2023-yilning mos davriga nisbatan 3,8 foizga ko‘p), 689,5 ming tonna sut (2,5 foizga ko‘p), 256,0 mln. dona tuxum (6,1 foizga ko‘p), 24 780 dona qorako‘l teri (13,2 foizga ko‘p) yetishtirildi va 2 688,8 tonna baliq (11,5 foizga ko‘p) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 150,6 ming tonna go'sht (2023-yilning mos davriga nisbatan 3,8 foizga ko'p) yetishtirildi.

Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumi hajmining 82,3 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




**Samarqand viloyati bo'yicha
go'sht (tirik vaznda)
yetishtirish hajmi, tonna**




Sut


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 689,5 ming tonna sut (2023-yilning mos davriga nisbatan 2,5 foizga ko'p) yetishtirilgan.

Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiyligi hajmining 91,2 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati bo'yicha
yetishtirilgan
sut hajmi, tonna**




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Olingan tuxum mahsulotining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 526,0 mln. dona tuxum (2023-yilning mos davriga nisbatan 6,1 foizga ko'p) olingan.

Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiyligi hajmining 49,4 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




**Samarqand viloyati bo‘yicha
olingan tuxum
hajmi, mln. dona**




Baliq


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati



Ovlangan baliqni xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari


● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 2 688,8 tonna (2023-yilning mos davriga nisbatan 11,5 foizga ko'p) baliq ovlandi.


Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiyligi hajmining 94,9 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Samarqand viloyati bo'yicha
ovlangan baliq
hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni hamda o'sish sur'ati




2024-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,9 foizi fermer xo'jaliklari, 93,7 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,4 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda, qo'y va echkilar umumiyligi sonining 9,2 foizi fermer xo'jaliklari, 86,0 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 4,8 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keladi, otlar umumiyligi sonining 17,7 foizi fermer xo'jaliklari, 80,6 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keladi, shuningdek, parrandalar umumiyligi sonining 35,0 foizi fermer xo'jaliklari, 44,7 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keladi.

2024-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 650,8 ming taga yetdi.


2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 31,6 ming taga (1,9 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O‘sish sur’ati



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**



● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi
tashkilotlar



2024-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 93,7 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Samarqand viloyati
bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning
umumiyl
bosh soni, ming bosh**




2024-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 703,6 ming boshga yetdi.


2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni 13,2 ming taga (1,9 %) ko‘paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O‘sish sur’ati



Bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, sigirlarning bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 93,4 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Samarqand viloyati
bo'yicha sigirlarning
umumiyl bosh soni,
ming bosh**




2024-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 543,6 ming taga yetdi.


2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni 60,6 ming taga (2,4 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar


Soni, ming bosh



O‘sish sur’ati



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 86,0 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Samarqand viloyati bo‘yicha
qo‘y va echkilarning
umumiyl bosh soni,
ming bosh**




2024-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 28 797 taga yetdi.


2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni 1 309 taga (4,8 %) ko‘paydi.

Otlar


Soni, bosh



O‘sish sur’ati



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**



● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, otlarning bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 80,6 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Samarqand viloyati
bo'yicha otlarning
umumiy bosh soni, bosh**




2024-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 12 907,9 ming boshga yetdi.


2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni 982,0 ming taga (8,2 %) ko‘paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O‘sish sur’ati



**Bosh soning
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, parrandalarning soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 44,7 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Samarqand viloyati bo‘yicha
parrandalarning
umumi bosh soni,
ming bosh**



Qishloq xo‘jaligi va ekologiya
statistikasi bo‘limi

• (66)235-22-01